

Xarid va tender komissiyalarining yangi tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-292-son va 2023-yil 14-sentabrdagi “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-306-sonli qarorlariga muvofiq ATB “Qishloq qurilish bank” negizida “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tashkil qilingan va bir qator vazifalar yuklatilgan.

Bankda amalga oshirilayotgan transformatsiya jarayonlari natijasida yangi tashkiliy tuzilmalar tasdiqlangan bo‘lib, amalga oshiriladigan vazifa va funksiyalar qayta belgilangan.

Jumladan, bank Boshqaruvining 2024-yil 6 – iyuldaggi 147-sonli qarori bilan Ma’muriy xo‘jalik departamenti tarkibidagi Korporativ xaridlar boshqarmasi bankning Buxgalteriya hisobi va moliyaviy menejment departamenti tarkibiga o‘tkazilgan.

Shunga ko‘ra, o‘zaro manfaatlar to‘qnashuvi xatarlarini boshqarish, korrupsiyaviy xatarlar yuqori bo‘lgan yo‘nalishlarni yanada shaffoflashtirish maqsadida, bank Boshqaruvining 2024-yil 13-avgustdaggi 161-sonli qarori bilan tasdiqlangan xarid va tender komissiya tarkibini bekor qilib, amaldagi qonunchilik talablari asosida xarid va tender komissiyalarining yangi tarkibini tasdiqlash ehtiyoji yuzaga kelgan.

Xarid va tender komissiyalarining yangi tarkibini tasdiqlash masalasi Buxgalteriya hisobi va moliyaviy menejment departamenti tomonidan o‘rnatilgan tartibda bank Boshqaruvi muhokamasiga kiritilgan.

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Boshqaruvi to‘g‘risida”gi Nizomning 27-bandiga asosan kun tartibidagi masala Boshqaruv vakolatiga kirishini inobatga olib, Boshqaruv

QAROR QILADI:

1. Bank Boshqaruvining 2024-yil 13-avgustdaggi 161-sonli qarori ilovasida ko‘rsatilgan xarid va tender komissiyasi tarkibi bekor qilinsin.
2. Bosh bankda xarid va tender komissiyalarining yangi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Mazkur qaror ijrosini nazarat qilish Boshqaruv raisi o‘rinbosari v.b. O.Voxidov zimmasiga yuklatilsin.



<https://hujjat.brb.uz/?pin=tW55eQ62&id=825ec4d1-755e-4a29-acb8-3f80f7e17841>

Boshqaruv raisi v.b

Boshqaruv raisining birinchi
o'rincbosari v.b

Boshqaruv raisi o'rincbosari v.b

Boshqaruv raisi o'rincbosari v.b

Yuridik departament Departament
direktori

Komplaens nazorati departamenti
direktori

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy
menejment departamenti Bosh
buxgalter- direktori

IMZOLANGAN

S.Annaklichev

IMZOLANGAN

A.Muratov

IMZOLANGAN

O.Voxidov

IMZOLANGAN

B.Bobojonov

IMZOLANGAN

B.Norxujayev

IMZOLANGAN

J.Yusupov

IMZOLANGAN

R.Taxirova

Kiritildi:

Korporativ xaridlar boshqarmasi
Buxgalteriya hisobi va moliyaviy
menejment departamenti Korporativ
xaridlar boshqarmasi boshlig'i-
departament direktori o'rincbosari

IMZOLANGAN

F.Mustafoyev

**“Biznesni rivojlantish banki” ATB
Boshqaruvining 2024-yil “19” noyabrdagi
204/1-sonli qaroriga
ILOVA**

1. Xarid komissiyasi tarkibi

1	Komissiya raisi	Boshqaruv raisi o‘rinbosari v.b.	B.Bobojonov
2	Komissiya raisi o‘rinbosari	Bank tarmoqlarini rivojlantirish va mahsulotlarini sotish departamenti direktori	U.Muxammadiyev
3	Komissiya a’zosi	Yuridik departament bosh yurist konsulti	J.Kurbanov
4	Komissiya a’zosi	Axborot texnologiyalari va raqamlashtirish departamenti direktori	U.Islomov
5	Komissiya a’zosi	G‘aznachilik departamenti direktori	A.Salixov
	Komissiya kotibi	Buxgalteriya hisobi va moliyaviy menejment departamenti tarkibidagi Korporativ xaridlar boshqarmasi xodimi	ovoz berish huquqisiz

2. Tender komissiyasi tarkibi

1	Komissiya raisi	Boshqaruv raisi o‘rinbosari v.b.	B.Bobojonov
2	Komissiya raisi o‘rinbosari	Bank tarmoqlarini rivojlantirish va mahsulotlarini sotish departamenti direktori	U.Muxammadiyev
3	Komissiya a’zosi	Yuridik department direktorining birinchi o‘rinbosari	B.Djumayev
4	Komissiya a’zosi	Axborot texnologiyalari va raqamlashtirish departamenti direktori	U.Islomov
5	Komissiya a’zosi	G‘aznachilik departamenti direktori	A.Salixov
6	Komissiya a’zosi	Xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish departamenti direktori	I.Aliyev
7	Komissiya a’zosi	Xalqaro moliya institatlari bilan ishslash departamenti direktori	A.Palvanov
	Komissiya kotibi	Buxgalteriya hisobi va moliyaviy menejment departamenti tarkibidagi Korporativ xaridlar boshqarmasi xodimi	ovoz berish huquqisiz

Izoh: Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan yoki rasmiy ravishda (xizmat safari, mehnat va o‘quv ta’tili sababli, kasallik varaqasi bo‘yicha) ishda bo‘limgan taqdirda, ularning o‘rniga yangi tayinlangan yoki vaqtincha (shuningdek, tarkibiy tuzilma nizomi va lavozim majburiyatnomasiga asosida) vazifasi yuklatilgan xodimlar ovoz berish huquqi bilan komissiya a’zosi hisoblanadi.